

CHET TILLARI DARSLARIDA WEBQUEST TEXNOLOGIYASING O'RNI VA AHAMIYATI

Ashirbaeva Madina Nuralyevna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
2 bosqich magistranti

Yusupova Muhabbat Anatolevna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, Chet tillari kafedrası
mudiri, Ilmiy rahbar (PhD)

Annotatsiya: Hozirgi zamonaviy hayotimiz tinimsiz rivojlanishda, globalizatsiya, kompiyuterizatsiya jarayonlari sodir bo'lmoqda. Ushbu innovatsion jarayolarda ta'lim tizimi va undagi mavjud muammolarni hal etish uchun kuchli va zamonaviy bilimga, mustaqil va erkin fikrga ega shaxslar zarurdir. Bugungi kundagi ta'lim tizimi innovatsion xarakterga ega pedagogik jarayon bo'lib hisoblanadi.

Kalit so'zlar: WebQuest texnologiyasi, pedagogik texnologiya, kommunikativ kompetensiya, Internet resurslar, WebQuest strukturasi.

Kirish

Shuningdek bizning asrimizda chet tillarini bilish va o'rganish muhim o'rin egallaydi. Chunki chet tillarini bilish juda ko'p imkoniyatlarni beradi, yani jahon madaniyati bilan tanishish, ko'pgina davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantiradi, undan tashqari Internet resurslardan mumkin qadar to'liq foydalanishga yordam beradi. Bizning davrimizda internet –resurslar ham o'qituvchining, ham o'quvchining umumiy informatsion madaniyatining bir bo'lagi hisoblanadi. Internet xarbir o'quvchining shaxsiy faolliyat doyrasini kengaytirib, bir dars mobaynida sifatli materiallar yetqazib berish tezligini oshiradi. Internetni ta'lim jarayonida integratsiyalash, uni chet tillarini o'qitish jarayonida foydalanish vazifasi aktual hisoblanadi, sababi Internetni ta'lim va tarbiya berishda foydalanish ko'p maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaxshi yordam beradi. Masalan, chet tili darslarida audiotasmalarni eshitish o'rganuvchining tinglash ko'nikmasini oshiradi. Bu o'rganilayotgan tilning fonetik jihatdan o'ziga xosligini tushunish va olingan bilimni o'zining nutq jarayonida foydalanishga yordam beradi. O'rganuvchilar o'z fikrini chet tilida aniq va tog'ri bayon etishni boshlaydi.



Metodologiya

Zamonaviy sharoitlar pedagogik texnologiyalarining rivojlanishini talab qiladi, ya'ni kognitiv motivatsiyasini oshirishga yordam beradigan interaktiv ta'lim texnologiyalaridir. Ma'lumki, interaktiv ta'lim texnologiyalari o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini tashkil etish qoidalari tizimiga va pedagogik jihatdan samarali muloqatni ta'minlaydigan, o'quvchilarga asoslangan jarayon bo'lib, natijada o'quvchilarning o'quv faoliyatida muvaffaqiyat qozonishi va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan malakalarni rivojlantirishga asoslangan.

Tilni o'zlashtirishda yangi metod bo'lgan "WebQuest" texnologiyasini Internetsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu metod tillarni o'rganishga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. Umumta'limda bir nechta maqsadlar mavjud. Shularni orasida eng muhimi kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishdir. Kommunikativ kompetensiya bu muloqot qobiliyati va unga egalik qilish. Ushbu atama shaxsning boshqa shaxlar bilan muloqatda mahorat darajasi hisoblanadi. Kommunikativ yondashuv deb muloqat qilish va madaniyatlararo munosabatlarni shakllantirish qobiliyati tushuniladi, yani Internetning faoliyat asosidir.

Ta'lim kvesti – pedagogik texnologiya bo'lib, rolli oyin elementlari bilan muammoli vazifalar to'plamini o'z ichiga oladi, va buni bajarishda qandaydir resurslarni talab qiladi, birinchi navbatda Internet –resurslarini. Ta'lim jarayonida Internetning turli xil o'quv fanlariga integratsiyalashuvini maksimal darajada oshirish uchun kvestlar ishlab chiqilmoqda. Ular alohida muammoni, o'quv predmetini, mavzuni qamrab olishi va fanlararo ham bo'lishi mumkin. Bu WebQuestlar talabalar, ota-onalar, hamkasblar bilan ashlashda foydalanish mumkin.

O'quv jarayonida ta'lim texnologiyasi sifatida "kvest" termini birinchi bo'lib 1995 yil San-Diego Universiteti ta'lim texnologiyalari professori Bernie Dodge tomonidan taqdim etilgan. Bu metod Shimoliy Amerika va Evropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Shuningdek, ushbu o'quv model nafaqat o'qituvchilar orasida keng ommalashdi, balki bolalar va kattalar orasida ham mashxur bo'ldi. Kvest so'zini eshitganimizda odatda uyinchining aqli qobiliyatini sinaydigan kompiyuter oyini tushuniladi. Yani uyinchilar aniq maqsadga erishish uchun oldiga qoyilgan tusiqlarni engib o'tishi, yoki topshiriqlarni bajarishi kerak.

WebQuest texnologiyasi muammosi bilan ko'p rus olimlari, Andreeva M.V., Byxovskiy Ya.S., Nikolayeva N.V. va boshqalar ham shug'ullanishgan, va ularning asarlarida kvestning mohiyati haqida to'liq fikr yo'q.



- Byxovskiy Ya.S. quyidagi ta'riflarni beradi: ta'lim kvesti – bu Internetda ishlaydigan sayt bo'lib, u yoki bu o'quv vazifasini bajaradi.
- Kuznetsova T.A.: WebQuest – bu interaktiv ta'lim muhitini tashkil qilishning namunasidir deyilgan.
- Katerjina S.F.: web-texnologiya - turli xil ta'lim tizimlarini yaratishga imkon beruvchi ko'priklarni navigatsiya qilish texnologiyasi va ular o'z navbatida masofaviy ta'limning turli shakillarini tashkil etish uchun asosdir.

WebQuest texnologiyasi asoschilari va rus olimlari tomonidan “WebQuest” kontsepsiyasini tahlil qilganda uning shartli mohiyatini aniqlashdi, birinchi navbatda , axborotni izlashda Internetdan foydalanish kabi majburiy xususiyatlarni ajratishgan va ikkinchidan, o'quvchilarning faol bilim olish faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim muammolarini hal qilish dep tushuntirishgan.

Hozirda WebQuestlar aniq tuzilishga ega, B.Dodge tomonidan ishlab chiqilgan umumiy strukturaga asoslangan holda mualliflarning aksariyati quidagi komponentlardan tashkil topgan o'z WebQuestlarini ishlab chiqishmoqda:

- Kirish (Introduction) – mavzuni shakillantirish,ishtirokchilarning asosiy rollarini tavsiflash, butun bir ishni va rejasini ko'rib chiqish.Maqsad o'quvchilarni tayyorlash va rag'batlantirish. Shuning uchun bunda motivatsion va kognitiv hususiyatlar muhim ahamiyatga ega.
- Vazifa (Task) – muammoli vazifaning aniq va qiziqarli ta'rifi va yakuniy natijani taqdim etish shakli.
- Bajarish (Process) – ishning asosiy bosqichlarining aniq ta'rifi, harakatlar uchun qo'llanma, ma'lumot to'plash uchun foydali maslahatlar. Uslubiy nuqtai nazardan, material resurslarining dolzarbligi, xilma-xilligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turishi kerak, turli vazifalar , ularning yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, uslubiy qollab-quvvatlash mavjudligi vazifalarni bajarish uchun yordamchi va qo'shimcha ma'lumotlar.
- Baholash (Evaluation) – baholash shakli sifatida taqdim etiladigan WebQuestning bajarilishini baholash mezonlari va parametrlarining tavsifi. Ushbu mezonlar bajariladigan vazifalarni turiga bog'liq.
- Xulosa (Conclusion) – bu WebQuestni bajarib, o'quvchilarning o'rganishi mumkin bo'lgan axborotning qisqacha va aniq ta'rifi. Bunda “Kirish” qismi bilan Bog'liqlik bo'lishi mumkin.
- Foydalanilgan manbalar (Credits)- WebQuestni yaratishda foydalaniladigan resurslarga ssilkalar. Bu bo'lim Process bo'limi bilan birlashtirilishi mumkin.



• TeacherPage (O'qituvchi sahifasi) – o'qituvchi uchun tavsiyalar va izohlar. Hozirda, bu texnologiya paydo bo'lgandan beri, dunyodagi ko'p o'qituvchilar o'z darslarida bundan foydalanishni boshlashdi, ya'ni Internet-resurslaridan foydalangan holda. O'rta maktablar, kollejlari va universitetlar o'qituvchilari WebQuestlarni innovatsion texnologiya va o'quv modeli sifatida qarashadi. WebQuestlardan foydalanib dars o'tish- bu kompiyuter texnologiyalaridan foydalangan holda dars jarayonini juda a'lo darajada tashkillashtirishdir, yani talaba va o'quvchilarga mustaqil ravishda yoki guruhda ishlash imkonini beradi. Sababi hozirgi kunda Internetdan foydalanish juda keng ommalashgan, shunga ko'ra o'rganuvchilar aniq bir mavzu boyicha ma'lumotlarni, Webquest tomonidan berilgan bo'lib, bunda Internetdan foydalanib qidirishadi. WebQuestlar ishtirokchilardan o'qituvchi tomonidan qoyilgan qandaydir bir muammoni echishda o'ta yuqori darajadagi oylash va fikrlash qobiliyatidan foydalanishga majbur qiladi. Bunday turdagi vazifalar ma'lumotlarni baholashga va Internetdan nafaqat ishtimoyi tarmoqlardan foydalanish va videorolliklarni ko'rish uchun, balki undanda ko'proq maqsadlarda foydalanishni o'rgatadi.

WebQuest o'rganuvchilarning tahlili va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, WebQuest yaratuvchi o'qituvchi yuqori darajadagi fan va metodik kompetensiyaga ega bo'lishi kerak. O'qituvchi kvest-loyhasini ishlab chiqishda o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni qidirish, umumlashtirish, sintezlash, saqlash va uzatish ko'nikmalariga ehtiyoj bo'lgan vaziyatlarni yaratish imkoniyatiga ega. O'yin metodlari chet tillarini o'rgatishda juda samarali, shuning uchun ular amaliy yo'nalishga ega. (Baguzina, b. 5)

O'quvchilar WebQuest topshiriqlarni bajarish natijasida ko'plab yangi ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'ladi, yani tarmoq xizmatlari bilan ishlashni o'rganadilar, o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Lekin eng muhimi, ular muloqat qilishni, muammolarni muhokama qilishni va umumiy echimni topishni o'rganishadi.

WebQuestlardan ilg'or onlayn-ta'lim texnologiyasi bilan sinf-dars tizimidagi eng yaxshi amaliyoti integratsiyalashgan "aralash ta'lim" (blended learning) ta'lim texnologiyasini amalga oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu texnologiya an'anaviy va elektron ta'lim texnologiyasidan foydalanish hamda bir-birini to'ldiruvchi auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil o'quv faoliyatiga asoslangan holda tashkil qilingan.



Xulosa

Shunday qilib, har qanday ta'lim texnologiyasi kabi WebQuest texnologiyasi strukturaning elementlari va texnologik xaritada aks ettirilgan mazmunli to'ldirish talablari bilan ifodalangan invariant qismga egadir. Ta'lim sistemasining sifatini oshirishda zamonaviy informatsion-pedagogik va an'anaviy texnologiyalarni o'quv jarayonida integratsiyalash lozim. Ushbu texnologiya konsepsiyasi o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish g'oyasi sifatida tushunsa bo'ladi, ular asosiy muammolarni hal qilishda, qoshimcha topshiriqlarni bajarishda navigatorlar, maslahatlar, Internet axborot resurslaridan foydalangan holda jamoada shaxsni rivojlanishi uchun mo'ljallangan. Texnologiyani darslarda ham, darsdan tashqari faoliyatda ham amalga oshirishda ijobiy muhit yaratish, o'quvchilarni mustaqil izlanish va ijodkorlik uchun rag'batlantirish va sharoit yaratish kerak.

Ta'lim texnologiyasining muvaffaqiyatli o'tishiga Internet tarmoqlaridagi olingan ma'lumotlarning sifati ham ta'sir qiladi, undan tashqari qatnashuvchilardan elektron gadgetlarni organik qoshilishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева, М.В. технологии веб-квест в формировании коммуникативной и социокультурной компетенции//Информационно-коммуникативные технологии в обучении иностранным языкам. Тезисы докладов I Международной научно-практической конференции. М.,2014. стр.58-62.
2. Багузина, Е.И. Веб-квест как современная форма промежуточного и итогового контроля при обучении иностранному языку.
3. Горбунова, О.В. Веб-квест в педагогике как новая дидактическая модель обучения школьные технологии. 2016.№2. стр.56-103.
4. Ashirbaeva, M.N., & Yusupova, M.A. (2022). USING WEBQUESTS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES AS AN INTERNET-BASED TECHNOLOGY. Academic research in Educational Sciences, 3(5), 530-535. <http://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-5-530-535>.
5. Ashirbaeva, M.A. (2021). The role of using WebQuests in teaching speaking skills. Academic research in Educational Sciences (ARES), 2(12), 788-793.
6. Dodge, B. WebQuest taxonomy:A taxonomy of tasks. 1999.- <http://webquest.sdsu.edu/taskonomy.html>.
7. Dodge, B. creating a rubric for a given task.2001. <http://project.edtech.sandi.net/staffdev/tpss99/rubrics/rubrics/html>.
8. Yusupova, M.A. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyasidan foydalanishga o'rgatish tizimi. Ped.fan.bo'y.fal.d-ri(PhD) diss.avtoreferat.-T.:2021.

